XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 7 - dekabr VI-56-42-10-212-K/22 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent tumani 2021-2022 o‘quv yilida maktabni tamomlab, nufuzli universitet va institutlarga qabul qilingan yosh iqtidorli, xulqi namunali yoshlarimiz orasida ijtimoiy ximoyaga muxtoj, oilaviy sharoiti og‘ir bo‘lgan o‘quvchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 28 aprel “Moddiy yordam va ko‘makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 250-son qaroriga Toshkent tumani 2021-2022 o‘quv yilida maktabni tamomlab, nufuzli universitet va institutlarga qabul qilingan yosh iqtidorli, xulqi namunali yoshlarimiz orasida ijtimoiy ximoyaga muxtoj, oilaviy sharoiti og‘ir bo‘lgan o‘quvchi yoshlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida**,** Xalq deputatlari tuman Kengashi “Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari” bo‘yicha doimiy komissiyasining 2022 yil 7 noyabr kunidagi 19/3-son yig‘ilish bayoni inobatga olinsin.

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent tuman Kengashining 6-chaqiriq 56-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi 2022 yil 7-noyabrdagi 19/3-majlis bayoni tasdiqlansin.

2. Toshkent tumani 2021-2022 o‘quv yilida maktabni tamomlab, nufuzli

universitet va institutlarga qabul qilingan yosh iqtidorli, xulqi namunali yoshlarimiz orasida ijtimoiy ximoyaga muxtoj, oilaviy sharoiti og‘ir bo‘lgan o‘quvchi yoshlarni to‘lov kotnraktlarini to‘lab berish ishlari “Yoshlar” daftari jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan kontrakt summasining 50 % foizi miqdorida amalga oshirilsin (Ro‘yxat ilova qilinadi).

3. «Xalq banki» Keles filiali boshqaruvchisi (S.Isakov)ga jami 7 nafar talabaga jumladan, 9-umumiy urta ta’lim maktabini tugatgan 6 nafar, 22-umumiy urta ta’lim maktabini tugatgan o‘quvchilarga nomiga plastik kartalari mavjud bo‘lmasa 3 ish kuni muddatida plastik kartalar ochilishi va qontrakt to‘lov pullari tranzit hisob raqamga o‘z vaqtida plastik kartalariga tushirishini nazorat qilish vazifasi yuklatilsin. (Ro‘yxat ilova qilinadi).

4. Ajratilgan mablag‘ni tasdiqlangan ro‘yhat asosida fuqarolarga belgilangan miqdoridagi summalarni o‘z vaqtida yetkazilishni ta’minlash “Mahalla xayriya jamot fondi xisobchisi D.Abdusamatov zimmasiga yuklatilsin

5. Ushbu qaror ijrosini ta’minlash Toshkent tumani hokimining Yoshlar siyosati ijtimoiy rivojlantirish ma’naviy ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari I.Dostonovga, «Xalq banki» Keles filiali boshqaruvchisi S.Isakovga, nazorati Xalq deputatlari tuman Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanishi masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi G.Mirzaraximova zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Xalq deputatlari Toshkent tuman
Kengashining
2022 yil 7 dekabrdagi
VI-56-42-10-212-K/22-son qaroriga
1-ilova

Toshkent tumani 9-umumiy urta ta’lim maktabini tugatgan o‘quvchilar.	
1	Anvarova Ma’mura
2	Murodxg‘jaev Abdullox
3	Xabibullaev Asadilla
4	G‘ofurjonova Nilufar
5	Xikmatillaeva Zebo
6	Mansurova Zilola
Toshkent tumani 22-umumiy urta ta’lim maktabini tugatgan o‘quvchisi.	
7	Zulfiqorova Muxlisa